

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

Filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi yo'nalishi 448-guruh talabasi
Qosimova Mardonaning

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Alisher Navoiyning “Lison-ut tayr” dostoni
hikoyatlarining tasnifi

Ilmiy rahbar:

H.Jo'raev,
filologiya fanlari doktori

Farg'ona - 2013

R E J A :

K i r i s h

1 BOB. “Lison-ut tayr” dostonining yaratilish tarixi.

1-fasl. “Lison-ut tayr” tipidagi dostonlar.

2-fasl. Asar kompozitsiyasida hikoyatlarning o’rni.

II BOB. Doston hikoyatlarining g’oyaviy-estetik tasnifi

1-fasl. Dostonning g’oyaviy-falsafiy jihatlari.

2-fasl. Komillikning badiiy-estetik talqinlari.

X u l o s a

KIRISH

Istiqlol tufayli yuzaga kelgan talab va imkoniyatlar adabiyotshunoslik fani zimmasiga ham insonning tafakkur qudrati, qalb va idrok kuchi bilan yaratilgan bebaho merosimizni Millat va Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan xolis hamda haqqoniy o'rganish, ma'naviy qadriyatlarimizni teranroq va samaraliroq kashf etish mas'uliyatini yuklamoqda.

Mustaqillik sharofati ila har bir jabhada bo'lganidek, xalqimizning madaniy-adabiy tarixini o'rganishda ham yangi davr boshlandi. Xususan, milliy qadriyatlarimizning o'zagini tashkil qiladigan mumtoz adabiyotimiz tarixini tadqiq etishda ham yangi-yangi ufqlar ochildi. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar davomida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan... Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo'shgan olimu fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor... Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nig'oyatda muhim vazifa bo'lib qoldi."¹

Darhaqiqat, uzoq vaqtlargacha madaniy merosimiz bir yoqlama tadqiq qilindi. Marksizmning sinfiylik haqidagi aqidalariga to'g'ri kelmaydigan asarlar chetga surildi. Ayniqsa, diniy axloq va tarbiyaga, umuman, ilohiyotga oid asarlarning o'rganilishiga yo'l qo'yilmadi. Ayrim mumtoz adabiy asarlar esa yo chetlab o'tildi, yoki bir yoqlama talqin qilindi. Bu hol xalqning sezilarli qismida o'z o'tmishini to'g'ri anglab yetmaslik, u haqdagi yuzaki bilimlar aldovida yashash ko'nikmasini paydo qildi. Bu ko'nikma, sho'rolar hukmron bo'lgan deyarli yetmish yil davomida hayot va fikrlash, ijod va anglash mezoniga

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. O'zbekiston, 1998. B. 524-536.

aylanib bordi. Chala haqiqatlar yaqin o'tmishimizni xolis yoritishga to'sqinlik qildi.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning epik asarlari shoir merosida alohida o'rin egallab, uning "Xamsa" va "Lison-ut tayr" dostoni jahon adabiyotida badiiy ijodning porloq namunalaridan hisoblanadi. Chunki mazkur asarlarning maydonga kelishi tasodifiy hol bo'lmay, balki qadimiy tarixga ega bo'lgan o'zbek dostonchiligi taraqqiyotining qonuniy hodisasi sifatida o'zida o'zbek epik poeziyasining hamma yutuqlarini mujassamlashtiradi.

Nafaqat o'zbek, balki Sharq adabiyotida ham o'ziga xos o'rin tutuvchi "Lison-ut tayr" dostoni haqidagi dastlabki ilmiy tadqiqot mashhur Sharqshunos olim Y.E. Bertelsning "Navoiy va Attor" maqolasi hisoblanadi.²

Mazkur maqolasi bilan Y.E.Bertels ayrim sharqshunoslarning "Navoiy – tarjimon va taqlidchi shoir" degan qarashlari asossiz ekanligini isbotlab berdi.

Akademik V.Zohidov "Navoiyning "Lison-ut tayr" asari" nomli maqolasida mazkur doston g'oyaviy-falsafiy, badiiy-estetik jihatlardan ham o'ziga xos asar ekanligini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Garchi olim qo'yilayotgan eng muhim muammolarga o'sha davr mafkurasi nuqtai nazaridan yondashgan bo'lsa-da, shoirning epik asar yaratishdagi mahorati, obrazlar tizimi, asar syujeti haqida muhim qarashlarini bayon etgan.³

Adabiyotshunos N.Mallaevning "O'zbek adabiyoti tarixi" darslik kitobida ham Navoiyning bu dostoni haqida o'sha davr oliy o'quv yurtlari dasturi hajmida muhim ma'lumotlar berilgan.⁴

Shuningdek, adabiyotshunos olimlar A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, M.Oripov, A.Qayumov, S.G'anievalar ham mazkur dostonning u yoki bu jihatlari haqida maqolalar e'lon qilganlar, tadqiqotlar olib borganlar. Adabiyotshunos Sh.Sharipov o'zbek adabiyotshunosligida birinchi bo'lib mazkur doston haqida

² Bertels E.E. "Sufizm i sufiyskaya literatura". M., 1965. Str. 377-420.

³ Zohidov V. "Ulug' shoir ijodining qalbi". Toshkent. 1970. 376-401- betlar.

⁴ Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 1976. 508-518-betlar.

monografik tadqiqot olib borgan va “Alisher Navoiy “Lison-ut tayr” dostonining genezisi va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari” nomli risolasini e’lon qilgan.⁵

“Lison-ut tayr” dostoni bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari bugungi kunda ham izchil davom etmoqda. O’tgan asrning 90-yillarida, aniqrog’i, Istiqlol tufayli Navoiyning tasavvufga nisbatan munosabatini belgilashda va asarlarida aks etgan tasavvuf masalalari talqinida biror bir mafkuraning ta’siriga berilmagan yangicha va to’g’ri qarashlar paydo bo’la boshladi. Shu jihatdan adabiyotshunoslar I.Haqqul va S. Olimlarning risola hamda maqolalari alohida ajralib turadi. I.Haqqul kitoblarida Navoiy ijodidagi tariqat maqomoti, majoziy va haqiqiy ishq, Haq va xalq munosabati, fano, baqo, komil inson singari masalalar qatori vahdat-ul vujudga doir ham ayrim fikrlar bildirilgan.

Olim o’zbek tasavvuf she’riyatining shakllanishi va taraqqiyoti tahliliga bag’ishlangan tadqiqotlarida ham bu masalaga e’tibor qaratib, Navoiy lirikasida, xususan, uning g’azal va ruboiylarida vahdat-ul vujudning obrazli tasvirlari berilganligini o’rinli qayd etadi.⁶

Shunday bo’lishiga qaramay, ulug’ shoirning ba’zi muhim asarlari, jumladan, uning ijodida alohida o’rin tutuvchi mazkur asar istiqlool davri va milliy mustaqillik mafkurasida asosida keng ko’lamli tadqiq etilishi lozim. Chunki Navoiy hayotining so’nggi yillarida yozilgan ushbu doston shoirning muhim falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ma’rifiy qarashlarini o’zida mujassam etgan asar sifatida ulug’ mutafakkir ijodiga muayyan darajada yakun yasaydi. Bugina emas, ushbu doston o’zining genezisi, janr va g’oyaviy-falsafiy xususiyatlari bilan faqat shoir ijodida emas, o’zbek mumtoz adabiyoti tarixida ham alohida o’rin tutadi. Zero shoirning o’zi ham doston muqaddimasida Attorning “Mantiqut tayr” dostoniga yuksak baho berishi bilan birga, o’z asarining qimmatiga ham ishora qiladi:

***...Bir taraf borig’a oyinu sharaf,
“Mantiq-ut tayr”ig’a oyin bir taraf.***

⁵ Sharipov Sh. Alisher Navoiy “Lison-ut tayr” dostonining genezisi va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. Toshkent. “Fan”. 1982.

⁶ Haqqulov I. Tasavvuf va she’riyat. Toshkent. 1991.

*...Fahmig'a maxfiy zabondoni kerak,
Yo'q zabondonkim – Sulaymoni kerak.*

*...Lek haq tavfiq bersa, men – gado,
Shayxning ruhiga aylab iqtido.*

*O'yla qushlar nutqini izhor etay,
Bulbulu to'ti kibi guftor etay...*

Tasavvuf g'oyalari singdirilgan adabiyot insonni va, umuman, jamiyatni poklashga, ularga yuksak ilohiy mazmun berishga yo'naltirilgani bilan katta e'tiborga loyiq. Shu jihatdan tasavvuf doirasidagi vahdat-ul vujud ta'limoti alohida qimmat kasb etadi. Olloh va olamning yagonaligini ifodalagan vahdat-ul vujud ta'limoti o'rta asrlardan boshlab Sharq falsafasining asosiy masalasiga aylandi. Bugina emas, u tasavvuf adabiyoti va tasavvuf g'oyalari singdirilgan adabiyotda ham katta o'rin tutar edi. Sharqning ko'pgina mutafakkirlari o'z asarlarida bu masalaga munosabat bildirib, uning turli qirralarini badiiy-falsafiy jihatdan yoritganlar. Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ham ana shunday siymolardan biri bo'lib, "Lison-ut tayr" dostoni uning mazkur mavzuga bag'ishlangan yaxlit adabiy merosidir.

Biz ushbu kichik tadqiqotimizda "Lison-ut tayr" dostonidagi hikoyatlar, ularning o'xshash hamda farqli jihatlariga to'xtalish, Navoiy ijodida Attor an'analari va shoirning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatish, majoziy obrazlar va ularning g'oyaviy-badiiy funksiyalarini belgilash, hikoyatlardan kelib chiqadigan xulosalarga e'tiborni qaratish, dostonning ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidagi o'rniga urg'u berish hamda adabiy merosimizdagi ahamiyatini ta'kidlashni maqsad qilib qo'ydik.

Mavzu yuzasidan quyi kurslarda kurs ishi bajarilgan, ilmiy-nazariy anjumanga ma'ruza matni tayyorlangan.

1 BOB. “LISON-UT TAYR”NING YARATILISH TARIXI

1-fasl. Sharq adabiyotida “Lison-ut tayr” tipidagi asarlar.

Sharq mumtoz adabiyotida sayyor yoki an’anaviy syujetli asarlar ko’plab uchraydi. Shular qatorida “Lison-ut tayr” tipidagi majoziy-falsafiy asarlarning ham kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi mavjud.

Ma’lumki, Navoiy va Attor dostonlari syujeti qushlarning Simurg’ tomon qilgan safari tasviriga asoslanib, shu orqali mualliflar o’zlarining muayyan falsafiy qarashlarini obrazli va badiiy tasvirlaganlar. Xuddi shu mavzu va syujet asosida Attor va Navoiydan avval Abu Ali ibn Sino ham qalam tebratib, “Risalat-ut tayr” nomli asar yaratgan. Darhaqiqat, Ibn Sinoning mazkur risolasi faqat Attor va Navoiy dostonlari vujudga kelishida o’ziga xos turtki bo’libgina qolmasdan, shu bilan birga, undan so’ng qush tili bilan majoziy-falsafiy asarlar yaratilishiga omil bo’lib ham xizmat qilgan. Chunki G’azzoliy va Suhravardiy singari mualliflar ham xuddi shu tipda asarlar yaratganliklari haqida ma’lumotlar bor.

Ibn Sinoning “Risalat-ut tayr” (“Qush risolasi”) asarining qisqacha mazmuni quyidagicha: Bir gala qushlar ovchi tuzog’iga ilinib, undan qutulishga urinishlari zoe ketadi. Shunda ular tegrasida yana boshqa bir qushlar galasi paydo bo’ladi. Ma’lum bo’lishicha bu qushlar ham tuzoqqa ilingan bo’lib, keyinchalik undan qisman xalos bo’lishgan ekan. Ularning bosh va qanotlari ozod bo’lsa-da, oyoqlarida tuzoq qoldiqlari saqlanib qolgan edi. To’r ostidagi qushlar birodarlari yordamida bo’yin va qanotlaridagi tuzoq changalidan xalos bo’lishadi. Ammo oyoqlaridagi tuzoq bandlaridan butkul qutula olmaydilar. Shundan so’ng qushlar najot istab, keng vodiylar hamda baland tog’lar osha buyuk podshoh huzuriga yo’l oladilar. Nihoyat, sakkizta tog’ va vodiylar orqasida qolib, ko’zlangan manzilga yetib keladilar. Muhtasham qasrga kirganlarida parda ko’tarilib, qushlarning ko’zi shohga tushadi. U husnu jamolda shunchalar tengsiz ekanki, qushlar lol bo’lib, hushlari boshlaridan uchadi va nimaga kelganliklarini ham unutib qo’yishadi. SHoh lutf-marhamat ko’rsatib, ularning hushini joyiga keltiradi. Qushlar

dadillanib, o'z istaklarini bayon etishadi. Shoh ularga “Oyoqlaringizdagi tuzoqni qo'ygan kishidan bo'lak bo'lak hech kim yecha olmaydi. Men unga bir elchi yuboraman. Elchi sizlarni tuzoqdan qutqarishni ovchidan iltimos qiladi”, deya javob beradi. Qushlar izlariga qaytadilar.

Mazkur syujetni tadqiqotchilar Ibn Sinoning tarjimai holi bilan bog'lab tushuntiradilar. Masalan A.Irisov shunday yozadi: ”Asardagi tuzoq – Mahmud G'aznaviyning changali, qushlarning boshu qanotlari ozod bo'lishi esa Xorazmshohning olimlarga o'z taqdirlarini o'z qo'llariga topshirishi, qushlar oyoqlaridagi tuzoq qoldiqlari Mahmud G'aznaviyning doimiy ta'qibi, tog' va vodiylar esa Ibn Sino qochib, kezib yurgan shaharlardir.”⁷

Asarga shu nuqtai nazardan yondashganda, undagi falsafiy mazmunni quyidagicha izohlash mumkin: ya'ni qushlar tuzoqdan to'liq xalos bo'la olmaganliklari kabi inson joni ham uning tanasidan tashqarida mavjud emas, balki, u bilan birga mavjuddir. U moddiy voqelikning muhim tarkibiy qismidir. SHuning uchun ham podsho qushlarga “oyoqlaringizdagi tuzoqni qo'ygan kishidan bo'lak hech kim yecha olmaydi” deya javob beradi. Demak, muallif fikricha, jon moddiy borliq bilan birgalikda mavjud bo'lib, ular o'zaro chambarchas bog'liq va bir-biri bilan aloqadordir.

Mazkur asarni falsafiy-tasavvufiy nuqtai nazardan ham talqin qilish mumkin. Bu esa Sharq adabiyotiga xos bo'lgan mazmunning serqirraligini, turli tabaqa va saviyaga ega bo'lgan kitobxonlar uni o'z tushunchalari bo'yicha talqin qilishlari mumkinligini ko'rsatadi.

Nima bo'lganda ham, Ibn Sinoning mazkur asari Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikr va badiiy tafakkuri taraqqiyotida sezilarli iz qoldirib, o'zidan keyin arab, fors-tojik va turkiy tillardagi adabiyotlarda shu xil uslubda asar yozish an'anasini boshlab berdi. Binobarin, qushlarning majoziy obrazlari vositasida yozilgan falsafiy ruhdagi keyingi badiiy asarlar, shu jumladan, Alisher Navoiyning “Lison-ut tayr” dostoni ham genezis nuqtai nazaridan Ibn Sinoning mazkur risolasiga borib taqaladi. Biroq bu asarlar Ibn Sino asariga quruq taqlid yoki oddiy

⁷ Irisov A. Abu Ali ibn Sinoning “Salomon va Ibsol” qissasi. Toshkent. 1973. 18-19 betlar.

payrav mahsuli sifatida vujudga kelmay, balki muayyan ijtimoiy-tarixiy sabab va sharoitlarga muvofiq, xususan, Sharq ijtimoiy-tarixiy tafakkuri taraqqiyoti bosqichlari hamda mualliflarning dunyoqarashi, g'oyaviy maqsadlari bilan bevosita bog'liq holda yuzaga kelgandir.

Fors-tojik adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, mutafakkir shayx Farididdin Attor (taxminan 1141-1229) o'z ijodiy faoliyati bilan Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyoti tarixida muhim o'rinlardan birini egallaydi.

Attor serqirra ijod sohibi bo'lib, undan katta adabiy-badiiy meros qolgan. Tasavvuf ta'limotining yetakchi g'oyalarini badiiy ifodalash Attor ijodiga xos bo'lgan asosiy xususiyatdir. Noyob iste'dod sohibi bo'lgan shoir o'z asarlarida tasavvuf ta'limotining vahdati vujud konsepsiyasini yuksak poetik mahorat bilan targ'ib qiladi.

Shoirning ko'p sonli asarlari orasida "Mantiq-ut tayr" dostoni alohida o'rin egallaydi. Sharq adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadigan mazkur dostonda muallif tasavvuf ta'limotining asosiy qonun-qoidalarini majozlar vositasida izchil bayon etadi.

Dostonda Bulbul, Tovus, To'ti, Tazarv, Kabk (kaklik), Bum (Boyqush), Uqob (Burgut), Bat (O'rdak) va boshqa qushlarning obrazlari mavjud. Shoir mazkur obrazlarni jamiyatda tutgan o'rni, mashg'uloti va xarakteri jihatidan bir-biridan ajralib turuvchi muayyan shaxs tiplarining majoziy obrazi sifatida talqin etadi. Bu sohada u, asosan, o'z davri xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot va tasavvuf she'riyatida to'plangan boy tajribalarga suyanadi. Masalan, Uqob obrazi folklor va badiiy adabiyotda bo'lgani kabi mag'rurlik timsoli, Tovus esa o'z tashqi go'zalligini ko'z-ko'z qilib, mag'rurlanib yuruvchi usti yaltiroq, ichi qaltiroq kishilarning majoziy-allegorik obrazidir. Qushlar obrazini shu xilda ijtimoiy hayotga yaqinlashtirish shoir uchun tasavvufga doir eng muhim nazariy masalalarni keng bayon etishga imkon bergan.

Shoirning mazkur mavzuni rivojlantirishga qo'shgan muhim hissalaridan biri uning asaridan Hudhud obrazining o'rin olishidir. Chunki Attor asarida Hudhud bosh, yetakchi qahramonlardan biri bo'lib, dostondagi barcha voqea-hodisalar

bevosita uning faoliyati bilan uzviy bog'liq holda berilgan. Attorgacha bo'lgan shu tipdagi asarlarda bu obrazni uchratmaymiz.

Attor Hudhud obrazini asosiy mavzu doirasiga olib kirar ekan, birinchi galda u haqdagi Sharq folklori va Qur'onda mavjud ayrim ma'lumotlarga tayanadi. Rivoyatlarga ko'ra, Hudhud Sulaymon payg'ambarning eng yaqin sirdoshi va yaqin maslahatchisi bo'lib, u bilan Sabo shahri malikasi Bilqis o'rtasidagi sevgi munosabatlarida vositachilik rolini o'tagan va bu boradagi alohida xizmatlari uchun payg'ambar nazariga tushgan. Boshqa rivoyatlarda ham Hudhud ana shu tarzda donishmand va maxfiy sirlardan xabardor qush sifatida talqin etiladi. Shoir mazkur rivoyatlardan ijodiy foydalanib, Hudhudni Simurg' tomon safarga chiqqan qushlarning yo'lboshchisi sifatida tasvirlaydi. Hudhud obraziga yuklangan bu vazifa uni tariqat yo'liga kirgan so'fiylar rahnamosi (piri murshid)ning umumlashma majoziy obrazi darajasiga ko'taradi. Shunga muvofiq, asarda tasavvufga oid barcha nazariy va amaliy masalalar uning tilidan bayon etiladi.

Attor afsonaviy Anqo qushi o'rniga fors-tojik xalqlari orasida mashhur bo'lgan Simurg' qushini asarga olib kiradi va shu orqali unga juda katta g'oyaviy-badiiy vazifa yuklaydi. Dostonda hikoya qilinishicha, yetti vodiya (Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat va Faqru fano vodiylari) uchib o'tish jarayonida Simurg'ni izlab yo'lga chiqqan qushlarning deyarli barchasi halok bo'lib, atigi o'ttizta ko'zlangan manzilga yetib keladi. Ana shu o'ttizta qush (si murg') Simurg' (xudo) ga aylanadi, o'zlarida Simurg'ning belgi-fazilatlarini ko'radi.

Attorning mazkur qarashlari va xulosasi uni ilk tasavvufning yirik namoyandalaridan biri bo'lgan va "Anal-haq" (Men – xudo) degani uchun dorga osilgan Mansur Xalloy (858-922) bilan yaqinlashtiradi. SHuning uchun ham mavlono Jaloliddin Rumiy u haqda "Shayx Mansur Xalloy nuri yuz ellik yildan so'ngra Shayx Farididdin Attor ruhiga tajalliy qildi"⁸ degan edi.

"Mantiqut tayr" dostoni Sharq adabiyotida keng tarqalgan hikoya ichida hikoya uslubida yozilgan bo'lib, asar kompozitsiyasi qoliplovchi qissa ichida kelgan o'nlab hikoyatlarni ham o'z ichiga oladi. Mavzu jihatdan rang-barang,

⁸ Alisher Navoiy. Nasoyim-ul muhabbat. – Asarlar. O'n besh jildlik. 15-jild. Toshkent . 1968. B. 169.

ba'zan real hayotdan olib yozilgan bu hikoyatlar Attor ijodini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etish bilan birga, muallifni fors-tojik she'riy hikoyachiligining eng yirik ustalaridan biri sifatida ham namoyon qiladi. Mazkur asarda o'sha davrning muhim ijtimoiy, falsafiy va axloqiy masalalari xususida bahs yuritiladi.

Dostonning yuzaga kelishi Sharq xalqlari adabiyotida katta voqea bo'ldi. Asar majoziy tasvir usuli orqali tasavvufiy-falsafiy masalalarni ifoda etishning epik poeziyadagi mumtoz namunalaridan biri sifatida shuhrat qozondi. O'zidan keyingi fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotining falsafiy-didaktik yo'nalishi taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatib, Sharq she'riyatida yangi bir an'anani – qush tili bilan asarlar yaratish an'anasini boshlab berdi.

Attor dostonining keyingi davrlar adabiyotiga ta'siri keng va murakkab bo'lib, u turli xarakterdagi asarlarni o'z ichiga oladi. Bu ta'sirni o'zida aks ettirgan asarlar ham g'oyaviy jihatdan bir xil bo'lmay, muayyan davrlarning mahsuli sifatida o'zida o'sha zamonlarning muhim ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va axloqiy masalalarini aks ettiradi.

Alisher Navoiyning “Lison-ut tayr” dostoni ulug' mutafakkir shoirning butun ijodiy faoliyati davomida ilgari surilgan ilg'or falsafiy-tasavvufiy qarashlarni umumlashtirib, ularga yakun yasaydigan asar sifatida muallif ijodida o'ziga xos o'rin tutadi.

“Xamsa”dek olamshumul ulkan adabiy obidani “bir nafas bilan” qisqa muddatda nihoyasiga yetkazgan ulug' shoir va mutafakkir “Lison-ut tayr”ni yozishga umr bo'yi chog'lanadi.

***Lek so'z dushvor edi, men notavon,
Bormas erdi xomag'a ilkim ravon.***

***Oqibat ko'rdumki umr aylar shitob,
O'lsamu qolsa deyilmay bu kitob.***

Oltmishqa umr qo'yg'onda qadam,

Qush tilin sharh etgali yo'ndum qalam.

Alisher Navoiyning bu asarni yozishdan bosh maqsadi Farididdin Attorning “Mantiq-ut tayr” dostoniga nazira yozish orqali (shoirning o'zi bu asarni Attor dostonining tarjimasi deydi) qush tili vositasida o'zining vahdat-ul vujud ta'limoti sohasidagi ko'p yillik qarashlarini ma'lum sistemaga solish va ularga xotima yasashdan iborat edi. Buni muallifning o'z asari haqida aytgan “Chun “Lison-ut tayr” ilhoni bila tarannum tuzubmen, qush tili ishorasi bila haqiqat asrorin majoz suratida ko'rguzubmen”⁹ kabi so'zlaridan ham payqash mumkin.

“Lison-ut tayr” Navoiyning “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlaridan keyingi oltinchi doston bo'lib, hijriy 904 (melodiy 1498-99) yilda yozilgan.

Navoiy doston muqaddimasida asar yozilishiga turtki bergan omillarni sanab o'tadi. Birinchidan, Attor dostonining shoirga ko'rsatgan kuchli ijodiy ta'siri va bu ta'sir oqibatida paydo bo'lgan shunday asar yozishga rag'batlantiruvchi ishtiyoq bo'lsa, ikkinchidan, turkiy adabiyotda shu vaqtga qadar “Mantiq-ut tayr” tipidagi asar yaratilmaganligi edi. Turkiy tilda so'zlashuvchilarning yuksak san'at asarlaridan bahra olishini istagan, o'zi ham amalda bu borada juda ko'p ishlarni amalga oshirgan Alisher Navoiy “Mantiq-ut tayr”dek muhim va qimmatli asar turkiy tilda ham yuzaga kelishini istashi tabiiy hol edi.

Shoirning birinchi omilga tegishli izohlari dostonning “Bu kitob nazmida o'z munosabatining taqribi” bobida keltirilgan. Mazkur bob shoirning tarjimai holiga muhim chiziqlar kiritishi bilan xarakterlanadi. Shoirning yozishicha, maktabda tahsil olib yurgan bolalik chog'larida “Mantiq-ut tayr”ni o'zgacha ishtiyoq bilan mutolaa qiladi va uning syujeti, voqealari shoirning yosh zehnini butunlay egallab oladi. Fikri yodi qushlar haqidagi hikoyatlar bilan band bo'lib qolgan Alisher asta-sekin tengqurlaridan uzoqlashib, xayolparast bo'lib qoladi. Bundan xabar topgan ota-onasi kitobni man qilib, yashirib ham qo'yadilar. Ammo bu behuda edi: bola Alisher kitobni boshdan-oyoq yodlab olgan edi.

⁹ Alisher Navoiy. Muhokamat-ul lug'atayn. Asarlar. O'n besh jildlik. 14-jild. Toshkent. 1967. B.120.

Xullas, Attor dostoni Navoiyga juda erta o'z ta'sirini ko'rsatib, shoir butun umr shu tipda asar yozishni orzu qiladi.

Shoirning yuqoridagi ko'rsatmalari ko'p jihatdan uning mashhur "Xamsa"si tarkibiga kirgan dostonlar yozilishiga sabab bo'lgan omillar bilan umumiy xususiyatga ega. Ma'lumki, Navoiy "Xamsa"si avvalo, o'zbek xalqining fors-tojik tilidagi asarlar kabi chuqur mazmunli va badiiy barkamol epik asarlarga bo'lgan talabini qondirish, o'zbek adabiyotini Sharqning eng rivojlangan adabiyotlari darajasiga ko'tarish, eng muhimi, o'zbek tilining fors-tojik tilidan qolishmasligini amaliy jihatdan isbotlash kabi yuksak maqsadlar yo'lida yaratilgan edi.

2-fasl. Asar kompozitsiyasida hikoyatlarning o'рни

“Lison-ut tayr” hikoya ichida hikoya usulida yozilgan bo'lib, asar kompozitsiyasi qoliplovchi qissadan tashqari o'nlab hikoyatlarni ham o'z ichiga oladi. Avvalo, shuni aytib o'tish kerakki, Navoiy o'z asarlarida “hikoyat” atamasini muayyan adabiy shakl (hikoya)ga nisbatan qo'llash bilan birga, uni jamlovchi tushuncha sifatida ham ishlatgan. Umuman, mumtoz adabiyotda bu atama kichik va o'rta epik turga mansub hikoya, masal, latifa, rivoyat, afsona va qissa kabi janrlarga nisbat berilgan.¹⁰

Dostonda 65 ta hikoyat mavjud. Mazkur hikoyatlar dostonidagi ayrim lavha, mulohaza yoki nazariy qarashlarga ilova sifatida, ularda ilgari surilgan mazmun va g'oyani chuqurroq ochish uchun msol tariqasida keltirilgan. Demak, bu hikoyatlar asar kompozitsiyasi, syujeti va g'oyaviy mazmunida o'zining muayyan vazifasiga ega. Shu bilan bir qatorda ular mustaqil syujet, kompozitsiya va g'oyaga ega bo'lgan asarlar ham hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni alohida mustaqil asarlar sifatida tekshirish mumkin.

Dostondan o'rin olgan hikoyatlarni mavzular ko'lamiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mazmundagi hikoyatlar.
2. Din va tasavvuf namoyandalari, ularning ba'zi muhim qarashlariga oid hikoyatlar.
3. Axloqi-ta'limiy va ma'rifiy hikoyatlar.
4. Ishq-muhabbat mavzuidagi hikoyatlar.

Ammo bu tasniflash shartli bo'lishi mumkin. Chunki axloqiy-ta'limiy yoki ishq mavzusidagi hikoyatlarning ayrimlarida ba'zan muhim ijtimoiy va falsafiy qarashlar ilgari surilgan bo'lishi mumkin.

Dostonidagi hikoyatlar ichida **ijtimoiy-siyosiy va falsafiy** mazmundagi hikoyatlr anchagina o'rin egallab, ularda jamiyat hayotining muhim ijtimoiy-

¹⁰ Mallaev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. Toshkent. 1974. 186-bet.

siyosiy masalalari hamda shoirning tasvvuf falsafasga oid ba'zi qarashlari o'z aksini topgan. “Shoh va ikki darvesh”¹¹, “G'avvoslar”, Shatranji kabir”, “Shoh va uning ko'zgusi”, “Sham va parvonalar” kabi hikoya va msallar shunday asarlar jumlasiga kiradi.

“Shoh va ikki darvesh” hikoyatida aytilishicha, mamlakat hukmdori maishatga, ichkilikbozlikka berilib ketadi. Natijada mamlakatda zulm, fisq-fasod avjiga chiqadi. Shoh bir kuni mast holida turganida ko'chadan ketayotgan ikki darveshga ko'zi tushadi va ulardan biriga “Men yaxshimanmi yoki yoningdagi o'rtog'ingmi?” degan mazmunda savol beradi. Shunda Darvesh shohga quyidagicha javob beradi: “Sen yurt podshosi bo'lsang ham, aslida gumrohsan, chunki sen nafs qo'lida tutqunsan, mening o'rtog'im gado bo'lsa-da, nafsni o'ziga bo'ysundirgan”.

Darveshning achchiq so'zlari shoh ko'zini ochadi va o'zining bema'ni hayotidan pushaymon bo'lib, to'g'ri yo'lga kirishga qaror qiladi.

Dostondagi “SHatranji kabir” hikoyatida shoir yashagan o'rta asrlar hayoti uchun doimiy hodisalarda bo'lgan o'zaro qonli urushlarning jamiyat va xalq manfaatlariga xilof ekanligi ko'rsatib beriladi. Shoir shaxmat o'yiniga ramziy tus berib, uni ikki podshohning o'zaro urushlriga qiyoslaydi. O'yin tamom bo'lgach, shaxmat donalari yig'ishtirilib, xalta ichiga solinadi, shunda ular o'yin (jang) paytidagi ahamiyatini yo'qotib, mohiyat jihatdan bir xil bo'lib qoladilar.

Chun xarita ichra bog'landi bari,

“Shah” quyidur, yo piyoda yuqori.

Shunday ekan, turli shohlarning o'zaro dushmanlik qilib, bir-biriga qarshi katta qo'shin bilan jang boshlashi ham ana shunday mantiqsiz va zararlidir.

Asardagi “Ko'rlar va fil hikoyati” Sharq adabiyotida Navoiygacha Jaloliddin Rumi tomonidan ham uning “Masnaviyi ma'naviy” asariga kiritilgan. Alisher Navoiy ham o'zining ayrim tasavvufiy-falsafiy qarashlarini badiiy-estetik ifodlash maqsadida mazkur hikoyatni “Lison-ut tayr”ga kiritadi. Hikoyat mazmuni

¹¹ Dostondagi hikoyatlar umumiy mvzu bilan mazmunan bog'langani uchun Alisher Navoiy ularning ko'pchilini alohida nomlamagan. Biz ularning ayrimlarini mazmunidan kelib chiqib, shartli nomladik.

shundan iboratki, bir necha ko'zi ojiz kishilar Hindiston safariga chiqadilar. Qaytib kelganlarida odamlar ulardan filni ko'rgan-ko'rmaganliklarini surishtiradilar. Ko'rlarning har biri filning muayyan a'zosini paypaslagan ekanlar. Shunga asosan javob quyidagicha bo'ladi:

*Qo'llarin mas aylagan dedi: "Sutun",
Qornini etkan mas dedikim: "Besutun".
Ul birikim mas xartum ayladi,
Ajdah o'ndomi ma'lum ayladi.
Ul birikim tishlarin qildi bayon,
Dedikim: "Ikki so'ngak bo'ldi ayon..."*

Ushbu hikoya dostonidagi "Ma'rifat voliysi vasfi" bobida keltirilgan. So'nggi manzil – Haqiqatga turli yo'llar bilan borish mumkin. Shuning uchun ham doston muallifi filni yaxshi biladigan donishmand kishi tilidan shunday deydi:

*Har biri o'z bilganidin dedi so'z,
Solmog'on erdi biri pil uzra ko'z.
Lek jam' o'lg'onda bu barcha sifat,
Pilga hosildur ul dam ma'rifat.*

Dostonida islom dini va tasavvuf ta'limotining ayrim namoyandalari hayoti hamda ularning muhim qarashlari haqidagi hikoyatlar ham katta o'rin tutadi. Ularning ba'zilar Odam Ato, Azozil (shayton), Azroil, Sulaymon payg'ambar va shunga o'xshash diniy-afsonaviy qahramonlar haqidagi an'anaviy rivoyatlar bo'lsa, ayrimlari Muhammad alayhissalom va uning choryor – sahobalari Abubakr, Umar, Usmon va Ali, shuningdek, tasavvuf ta'limotining mashhur namoyandalari bo'lgan Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloy, Ibrohim Adham, Bahovaddin Naqshband kabilarning hayoti va faoliyatiga oid ayrim lavhalarni, ularning ibratli fikr-mulohazalarini bayon etishga bag'ishlangan.

Ushbu hikoyatlarning aksariyat qismi Hudhud tomonidan bayon qilingan tasavvufga oid ayrim masalalarga oydinlik kiritishga xizmat qildirilgan.

Masalan, bir qushning Hudhud bilan gunoh va tavba haqidagi savol-javobidan so'ng Odam Ato haqidagi hikoya keltiriladi. Unda Odamning garchi jannatdan quvilgan bo'lsa-da, samimiy va astoydil tavbasi tufayli gunohi kechirilib, payg'ambarlik martabasiga erishgani to'g'risidagi rivoyat o'z aksini topgan.

Azozil (shayton) haqidagi rivoyatda naql qilinishicha, Tangri Odamni vujudga keltirmasdan oldin Azozil barcha farishta-maloikalarning sarvari bo'lgan ekan. U Yaratganning amriga itoat qilib, necha ming yillar davomida toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lgan. Odam yaratilgach, Olloh barcha maloika-farishtalarni unga sajda qilmoqqa buyuradi. Azozil esa kibr va manmanlikka berilib, Odamga sajda qilishni xohlamagan va shu takabburligi tufayli abadiy tavqi la'natga uchragan.

Dostondagi she'riy hikoya va masllarning katta qismini **axloqiy-ta'limiy hikoyatlar** tashkil etadi. Kishilar xarakteridagi turli salbiy xislatlarni, ularning kamchilik va nuqsonlarini asarlarida goh o'tkir hajv, goh engil yumor bilan fosh etgan Navoiy mazkur hikoyatlarda ham o'zlarida har xil yaramas illatlarni mujassamlashtirgan shaxslarning jirkanch kirdikorlarini zo'r mahorat bilan ochib tashlaydi. Shu jihatdan asardagi xasis kishi, soxta gavharfurush, hind savdogari, mechkay polvon, Muqbil va Mudbir, tanbal kishi, xomxayol qalandar, o'z ishini yaxshi bilmaydigan bog'bon haqidagi hikoyatlar alohida ahamiyatga ega. Ularda shoir feodal tuzum keltirib chiqargan turli axloqiy illatlarni keskin tanqid ostiga olar ekan, bu illatlarga inson va jamiyat kamolotiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida qaraydi.

Umrini oltin-kumush to'plash bilan o'tkazgan bir xasis kishi mol-dunyasini yer ostiga ko'mib, maxfiy saqlar va hatto, bunga ham ishonmay, ko'pgina oltinlarini to'ning avra-astari orasiga qo'yib, tikib olgan edi. U bir kuni qo'lini yuvmoqchi bo'lib daryoga engashganida to'ning og'irligi tufayli suvga yiqilib tushadi va g'arq bo'ladi:

***Chun og'ir erdi diramdin langari,
Suv tubin tutti sadafdek gavhari.***

Shoir bu o'rinda kichik hayotiy bir voqea asosida mol-dunyo yig'ishga hirs qo'yish va xasislik kabi ijtimoiy illatlarni tanqid ostiga olib, kishilarni inson sha'niga dog' tushiradigan bunday nomaqbul ishlardan voz kechishga da'vat qilmoqda.

“Hind savdogari”, “Soxta gavharfurush” singari hikoyatlar ham yuqoridagi hikoyat bilan mazmunan hamohang bo'lib, boylik to'plashga mukkasidan ketgan kishilarning fojeali ravishda hayot bilan vidolashuvlarini tasvirlaydi.

Ma'lumki Muqbil bilan Mudbir haqidagi hikoya “Lison-ut tayr”dan tashqari Navoiyning “Sab'ai sayyor” va “Mahbub-ul qulub” asarlari tarkibida ham mavjud. Har uchala hikoyatda ham ismi jismiga muvofiq keluvchi ana shu ikki sayyoh boshidan o'tgan ajoyib va g'aroyib sarguzashtlar tasvirlanadi. Ularda Muqbil (bu so'zning lug'aviy ma'nosi iqqolli, baxtli demakdir) to'g'ri yo'ldan yuruvchi, kamtar, xushfe'l, rostgo'y kishi, Mudbir (ishi orqaga ketuvchi, baxtsiz ma'nosida) esa o'z nomidan ham ko'rinib turganidek, Muqbilning aksi sifatida namoyon bo'ladi.

“Lison-ut tayr”dagi Muqbil va Mudbir hikoyatining mazmuni shundan iboratki, ikki sayyoh xarakterlari bir-biriga to'g'ri kelmaganligi uchun sayohat davomida ajralib ketishadi. Muqbil shaharga yetgach, faqirlar va sofdil kishilar turadigan mahalla sari yo'l oladi. Mudbir esa “baytul-lataf” – buzuq xotinlar saqlanadigan joyni qidirib topadi. U yerda ko'p may ichib, bir kishi bilan janjallashadi va uni xanjar urib o'ldirgani uchun shoh tomonidan qatlga hukm qilinadi.

“Pahlavonning qismati” hikoyatining mazmuni quyidagicha: Bir polvon kishi bo'lib, u peshingacha o'n botmon (bir botmon taxminan 16 kg ga teng), shom vaqtida ham xuddi shuncha, bu ikki vaqt oralig'ida tag'in besh botmon ovqat yeydi. Biroq shuncha ko'p ovqat yeyishiga qaramasdan biror foydali ish bilan shug'ullanmaydigan tekinxo'r bir shaxsdir. Kunlarning birida urush boshlanib, odamlar o'z manzillarini tashlab ketishga majbur bo'ladilar. Pahlavon

ham ularga hamroh bo'lib yo'lga tushadi. Yo'l uzoq, oziq-ovqat yo'q. Shoir pahlavonning safardagi ahvolini quyidagicha tasvirlaydi:

Zo'rgar chun topmadi bir kun g'izo,

Boshladi o'z holig'a tutmoq azo.

Chun ikkinchi kunga etti pahlavon,

Ketmish erdi jismidin tobu tavon.

Lek uchinchi kun anga bebarglik,

Ayladi zohir biyobon marglik!

Shunday qilib, zo'rgarlik bilan nom chiqargan pahlavon favquloddagi safar azoblariga dosh bera olmay, fojiali halok bo'ladi. Ikki bukilgan qariyalar, yosh bolalar ham yetib borgan manzilga u yetib bora olmaydi. Bu esa basavlat va badnafs pahlavonning ayanchli o'limidan kelib chiqadigan kulgini yanada kuchaytirishga olib keladi.

“Lison-ut tayr” da **ishqni vasf etuvchi, sharhlovchi** bir qancha lavhalar, hikoyatlar keltirilgan. Dostondagi “Majnun”, “Arastu va uning shogirdi”, “Hayratda qolgan oshiq”, “Majnun va Layli”, “Shayx San'on” kabi hikoyatlar o'ziga xos ahamiyatga molikdir.

Ma'lumki, Majnun obrazi ko'pchilik Sharq adiblarida bo'lgani kabi Navoiy ijodiy merosining ham doimiy qahramonlaridan biri sanaladi. SHoir “Xamsa”sining uchinchi – “Layli va Majnun” dostonida bu obraz har tomonlama muammal darajada ishlangan. Navoiy “Lison-ut tayr”da Majnun haqida ikkita hikoyat yozib, ularda Sharq xalqlari og'zaki ijodida mavjud Majnun to'g'risidagi afsonalarni qayta ishlaydi. Gap shundaki, bu afsonalar shoirning “Layli va Majnun” dostonida aks etmagan.

Majnun haqidagi birinchi hikoyatda quyidagi voqea naql qilinadi: Layli nomini doimo tilida takrorlab yuruvchi Majnunni dashtda bir kishi uchratib qoladi va unga shunday savol beradi:

So'rdi: - "Kim birla surarsen bu maqol?"

Dedi: - Layli birla, ey farxunda hol".

Dedi: - "Ondin to sangadur xeli yo'l?"

Dedi: - "Ey g'ofil, erur jonimda ul,

Ulki oning zikridur jonimda qut,

Yo'l yiroq bo'lg'ondin o'lg'oymu unut!"

Ikkinchi hikoyat ham mazmunan shunga yaqin. Unda birov Majnundan "Oting nedur?" deya so'raganida, uning "Layli!" deb javob qaytargani qayd etilgan. Mazkur hikoyatlarda haqiqiy ishq sohibi bo'lgan Majnun ulug'lanib, har qanday tazyiq va to'siqlarga qaramay, o'z muhabbatiga sodiq bo'lib qolish g'oyasi ilgari surilgan.

Lekin Navoiy faqat majoziy-insoniy sevgiga berilib, muhitdan, jamiyatdan ajralib qoluvchilarni yoqlamaydi. Shu jihatdan shoirning "Arastu va uning shogirdi" hikoyati e'tiborga loyiqdir. Hikoya mazmunidan ma'lum bo'ladiki, Arastuning qobiliyatli shogirdlaridan biri bir qizni sevib volib, erta-yu kech u bilan band bo'ladi, ustoz huzuriga borishni ham unutadi. Shunda Arastu yigit bir joyga ketganida qizning ovqatiga maxsus dori qo'shib qo'yadi. Natijada qiz kasallanib, qayt qila boshlaydi. Arastu qizning og'zidan tushgan axlatlarni bir idishga to'plab qo'yishni buyuradi. Yigit kelib, sevikli va go'zal mahbubasi o'rnida kasalvand va notavon bir kimsani ko'radi. Shunda yigit:

Kirgach, istar erdi sho'xi dilkashi,

Ko'rdikim yotmish girihi noxushi.

Tonimoy dedi: - "Mening yorim qani?"

Sarv bo'yluq lola ruxsorim qani?"

Shunday qilib, "mening jonu jahonim, go'zalim qani", deya iztirob chekayotgan shogirdga ustoz haligi axlatlarni ko'rsatadi va sen ko'ngil qo'ygan narsa aslida shu edi, deya javob beradi. Shu tariqa ustoz o'z shogirdini haqiqiy ishq sari yo'llaydi.

Hikoyatlar orasida shayx San'on haqidagi hikoyat alohida o'rin tutadi. Garchi muallif boshqa she'riy hikoyalar qatori mazkur asarni ham "hikoyat" deb atasa-da, lekin bu asar g'oyaviy-tematik mazmuni, hajmi, kompozitsion tuzilishi, ayniqsa, shayx San'on obrazining mukammal ishlanganligi bilan boshqa hikoyatlardan farq qiladi. Shuning uchun ham uni bemalol doston tarkibidagi mustaqil she'riy qissa sifatida baholash mumkin.

Asarning bosh qahramoni bo'lgan shayx San'on Ka'bada shayxul mashoyix sifatida mashhur shaxsdir. U tushida ko'rgan Rum shahriga boradi va tarso qizni sevib voladi. Shayx muhabbatini oshkor etganida, qiz buni qabul etish uchun to'rt shart va ikki jurmona (jarima) bajarish lozimligini aytadi. Shayx hech ikkilanmasdan shartlarni bajarishga kirishadi: butparastlar marosimida hushidan ketguncha may ichadi, islomdan voz kechib, xristianlikni qabul qiladi. Qur'onni o'tga tashlaydi, darveshlik xirqasi, sallasi va tasbehini tarso kiyimlariga almashtiradi va beliga zunnor bog'laydi. So'ng jarima sifatida kechalari otashgohga o't yoqadi, kunduzlari esa cho'chqa galalarini boqadi...

Bir qarashda shayx San'on dindan ham, imondan ham voz kechgandek taassurot qoldiradi. Ammo gap yana ilohiy ishqqa borib taqaladi. Tarso qiz, yuqorida aytganimizdek, majoziy ishq vositasi bo'lib, u orqali haqiqiy mahbub – Haq ishq sari yo'l ochiladi. Shayx ishq olovida nuqra oltindek toblanadi, g'uborlardan poklanadi, o'tkinchi hoyu havaslardan xalos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, "Lison-ut tayr" dostonidagi hikoyatlar o'zining mavzu rang-barangligi, yuksak g'oyaviy mazmuni va badiiy barkamolligi bilan ajralib turadi. Bu asarlarda shoir yashab ijod etgan jamiyat hayotining turli tomonlari, xususan, ijtimoiy muhit va inson ma'naviy dunyosiga oid ko'pgina muhim muammolar o'z aksini topgan. Ularning ko'pchilik qismi o'z g'oyaviy va badiiy-estetik xususiyatlari bilan Alisher Navoiy hikoyanavislik faoliyatidagi yuqori bosqichni tashkil etadi.

II BOB. “LISON-UT TAYR” DA KOMILLIK TARANNUMI

1-fasl. Dostonning g’oyaviy –falsafiy jihatlar

Alisher Navoiyning epik she’riyati shoir ijodiyotida alohida o’rin egallab, uning mashhur “Xamsa”si va “Lison-ut tayr” dostoni jahon adabiyotida badiiy kashfiyotning porloq namunalaridan biri hisoblanadi. Navoiy dostonlarini yaratilishi adabiyotimiz tarixida butun bir davrni – o’zbek mumtoz epik she’riyatining kamolot davrini tashkil etadi. Chunki mazkur asarlarning maydonga kelishi tasodifiy bo’lmasdan, balki qadimiy tarixga ega bo’lgan o’zbek dostonchiligi taraqqiyotining qonuniy hodisasi sifatida o’zida o’zbek epik poeziyasining hamma yutuqlarini mujassamlashtiradi.

Doston an’anaviy muqaddima – hamd bilan boshlanadi:

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,

Tengri hamdi birla og’oz aylagay.

Ulki maxluqot xalloqidur ul,

Ondin o’zga foniyu boqiydur ul....

deb boshlanuvchi hamd qismining o’zidayoq muallif olamning yaralishi, insonning boshiga sharaf tojining qo’yilishi, iblisning la’natlanishi, barcha sir-asrorlar sohibi yaratganning o’zi ekanligi haqida estetik ta’sirchan, ma’naviy-falsafiy yuksak fikrlarni bildiradi. Navoiyning fikricha, tabiat olamining bunday go’zal qilib yaratilishidan maqsad Inson bo’lib, u yer yuzidagi barcha mavjudotlar ichida tengi yo’q xilqatdir:

Ofarinishdin qilib inson g’araz,

Oni aylab xalq ichinda bezavaz.

Umuman, olamning yaratilishidan maqsad Inson ekanligi haqidagi konsepsiya Navoiyning deyarli barcha asarlarida yaqqol ko’zga tashlanib turadi. Mazkur bobda Navoiyning tabiat hamda ilohiyotning bir butunligi – **vahdati vujud** nazariyasiga asoslangan qarashlari ham muxtasar poetik ifodasini topgan

bo'lib, bizning nazarimizda bu asar mazmun-mohiyatiga ekskursion ishora hamdir.

Shoirning fikricha, olamdagi barcha narsa, hodisa va o'zgarishlarning yaratuvchisi bo'lgan Zot o'zi ijod qilgan narsalardan tashqarida emas, balki ular bilan birga, bir butun holda mavjuddir. Shunga ko'ra Xoliq va maxluqni (yaratilmishni) bir-biridan ajratib qarash mumkin emas.

***Sun'unga yuz ofarin, ey kirdigor,
G'ayr yo'q sen, senki derlar oni bor.***

***Borsen sen, borlig' zebandasi,
Birliku jabborlig' arzandasi.***

***Sendadur ham birliku ham borlig',
Haylig'u qodirlig'u g'afforlig'.***

Demak, shoirning muqaddimadagi ushbu qarashlari asarning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglashda o'ziga xos kalit vazifasini ham o'taydi.

Dostonning ikkinchi bobi "Munojot qoziyul hojot hazratida..." deb nomlanib, unda muallifning Haqqa munojoti, tazarru va tavbalari aks etgan. Ulug' yoshni qoralagan shoir Haqqa murojaat qilib, o'zining gunoh va xatolari uchun istig'for aytadi, o'zini qattiq malomat qiladi, Yaratganning shafqat va muruvvatidan umidvorligini bildiradi.

Asarning III-XII boblari an'anaga ko'ra Muhammad alayhisalom va dastlabki to'rt xalifalar madhiga bag'ishlanadi. Me'roj voqeasiga bag'ishlangan to'rtinchi bobning o'ziga xos tomoni shundaki, unda shoir payg'ambarning Buroq nomli afsonaviy otda koinotga ko'tarilib, Olloh huzurida bo'lishi jarayoni tasvirlangan. Bu tasvirning ahamiyati shundaki, Hudhud rahnamoligidagi qushlarning Simurg' huzurida bo'lishi voqealari bilan uyg'unlikka, bu uchrashuvning mantiqiy-tarixiy asoslariga oldindan ishorani payqash mumkin.

Navoiy dostonning asosiy qismiga kirishishdan oldin ustozi Farididdin Attor madhiyasiga maxsus bob ajratadi va uning ijodiy faoliyatiga

Har ne gardun bahr ila konida bor,

Oncha yuz Attor do'konida bor

deya yuksak baho beradi. Navoiy Attor ijodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra "vahdat sirlari"ni sharhlashga bag'ishlangan ekanini qayd qilish bilan birga, uning mashhur asarlari sirasiga "Musibatnoma", "Ilohiynoma", "Ushturnoma", qasida, g'azal va ruboiylaridan tartib berilgan "Devon" va "Tazkirat-ul avliyo" kabilarni sanab o'tadi. Bu esa Navoiyning Farididdin Attor hayoti va ijodiy merosi bilan to'la tanish ekanligidan, uning g'oya va falsafiy qarashlarini har tomonlama chuqur o'zlashtirganidan dalolatdir.

Ammo, shoir fikricha, mazkur asarlarning barchasi Attor ijodining muhim bir tomonini tashkil etib, qanchalik katta sharaf va va maqtovgga sazovor bo'lsa, yolg'iz "Mantiq-ut tayr"ning o'zi o'shanchalik maqtoov va sharafiga loyiqdir.

Doston muqaddimasi qanchalik an'anaviy bo'lmasin, ulug' mutafakkir shoirning o'ziga xos dunyoqarashi, yangilik va o'ziga xosligi bu yerda ham ko'zga tashlanib turadi. Unda muallifning ba'zi muhim falsafiy qarashlari, shaxsiy hayotiga oid chizgilar, doston yozilishiga oid muxtasar ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Dostondagi qoliplovchi syujetni, u majoziy xususiyatga ega bo'lganligi uchun turlicha izohlash mumkin. Ammo muhimi shundaki, Alisher Navoiy ushbu qissani o'ziga xos yo'sinda talqin etgan va bu talqin qissa so'ngida keltirilgan shoirning quyidagi sharhida ochiq-oydin ifoda etilgan:

Munda gar yaxshi taxayyul aylasang,

Yoki ish sirrin taammul aylasang.

Muttasif bo'lsang sifatilloh ila,

Jazm etarsen xotiri ogoh ila.

Kim sen-o'q sen har nekim maqsud erur,

Sendin o'zga yo'q nekim mavjud erur...

***O'z vujudingg'a tafakkur aylagil,
Har ne istarsen o'zungdin istagil...***

Alisher Navoiyning qoliplovchi qissa so'ngida Insonga yuqoridagidek murojaat qilishi bejiz emas edi. Bu, avvalo, shoirning barcha asarlarida bo'lgani kabi mazkur dostonda ham insonning asosiy va markaziy masala tarzida o'rta qo'yilganligi va dostondagi tasavvufiy masalalar bilan bog'liq holda yoritilganidan dalolat beradi. Shoir asarda o'zining inson va uning ulug'vorligini tasdiqlovchi qarashlarini nazariy-falsafiy, obrazli-estetik jihatdan asoslab beradi. Dostonning bu kompozitsion strukturasi, g'oyaviy mazmuni va obrazlar tizimi ana shu maqsad yo'lida xizmat qilgan. Shuning uchun ham doston garchand zohiriy ko'rinishda qushlar va ularning sarguzashtlari haqida bahs yuritsa-da, aslida insonning ma'naviy kamoloti haqidagi asardir. Bu fikrni shoirning qoliplovchi qissa mazmunini sharhlab keltirgan quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi:

***Bordur inson zotida oncha sharaf,
Kim yamon axloqin etsa bartaraf.
Bo'lmasa fir'avnlig'ining payravi,
Qolmas ondin juz sifoti musaviy...***

Bu o'rinda Navoiy agar inson o'z axloqidagi Fir'avnga xos manmanlik, kibr-havo singari nuqsonlarni bartaraf etsa, Muso alayhissalom singari ma'naviy jihatdan kamolot hosil qiladi, degan fikrni olg'a suradi. Dostonning avj nuqtasi (kulminatsiyasi) qismida Simurg'ni izlab yo'lga chiqqan ko'p sonli qushdan faqat o'ttizta qush ko'p mashaqqat chekib, so'ngi manzilga yetib kelishi va u yerda o'zlarining timsolida Simurg'ni ko'rishi voqeasi ham shunga guvohlik beradi. Shoirning talqinicha, insonning majoziy obrazi bo'lgan qushlar komillikning muayyan bosqichlari (etti vodiy) ni boshdan kechirib, o'zlarining Simurg' bilan birgalikda mavjud ekanligini tushunib yetadilar.

Muallif insondagi "fir'avnlilik", ya'ni noqis tomonlarni qushlar bilan Hudhud o'rtasidagi savol-javob va munozaralarda ochib bergan. Bu munozaralarning diqqatga sazovor tomoni shundaki, bu o'rinda Navoiy qushlar obrazlaridan foydalanib, ma'naviy kamolotga to'sqinlik qiluvchi turli axloqiy va fe'l-atvordagi

illatlarni tanqid ostiga oladi. Qushlar eng oliy go'zallik va mukammallik timsoli bo'lgan Simurg' tomon safar qilishdan bosh tortib, har xil uzrlar va bahonalarni ro'kach qiladilar. Bu uzrlarda ularning har biriga xos xarakterli xususiyat o'z ifodasini topgan. Gap shundaki, bu xususiyat insondagi muayyan axloqiy xislat yoki qusur bilan muvofiq keladi. Shu ma'noda To'ti xudbinlik va shaxsiyatparastlik timsoli, Tovus va Tazarv tashqi go'zallik bilan mag'rurlanish, Kabki dariy (kaklik) va Kuf (boyqush) shaxsiy boylik va mol-mulk yig'ishga mukkasidan ketish, Qarchig'ay johillik va shuhratparastlik kabi illatlarning majoziy obrazlari hisoblanadi.

Hudhud ularni keskin tanqid qilar ekan, kishilarni bu xil illatlardan forig' bo'lishga chaqiradi. Ana shunday nuqson va illatlarni fosh qilishda mavzuga aloqador hikoyatlarning qistirib ketilishi asar o'qimishlilik va hayotiyiligini kuchaytiradi.

Dostondagi qushlar va Hudhud o'rtasidagi savol –javoblar ham asosan axloqiy-ma'naviy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, unda illat va insoniy fazilatlar muhokamasi keng o'rin olgan. Shu bilan birga, ularda tasavvuf bilan bog'liq muhim amaliy va nazariy qarashlar ifodalangan. Murshid va murid munosabatlari, tariqat va uning shartlari, tavba va gunoh masalalari, Haq yo'lida poklanish usullari va hokazo masalalar o'zining badiiy-estetik, g'oyaviy-falsafiy bayonini topgan. Alisher Navoiy ulug' mutafakkir donishmand, daho so'z san'atkori bo'lish bilan birga o'z davrining ijtimoiy-siyosiy voqeligida yirik davlat arbobi ham bo'lganligini esga olsak, u jamiyatdagi jarayonlardan chetda turishi mumkin emas edi. Aytmoqchimizki, shoir asar mohiyatiga ilohiy-tasavvufiy g'oyalarnigina emas, o'zi mansub bo'lgan jamiyat uchun muhim bo'lgan axloqiy qarashlarni ham singdirishi tabiiy bo'lgan. Shu nuqtai nazardan, odamlarni ma'naviy barkamollik sari chorlovchi, dunyoviylik nuqtai nazaridan ham muhim bo'lgan ayrim xislat va fazilatlarni badiiy tahlil etilgan o'rinlarga ham urg'u bermoqchimiz.

Dostondagi hikoyatlar ichida **ijtimoiy-siyosiy va falsafiy** mazmundagi hikoyatlar anchagina o'rin egallab, ularda jamiyat hayotining muhim ijtimoiy-siyosiy masalalari hamda shoirning tasavvufga oid ba'zi qarashlari o'z aksini

topgan. “Shoh va ikki darvesh”, “G’avvoslar”, “Shatranji kabir”, “Shoh va uning ko’zgusi”, “Sham va parvonalar” kabi hikoya va masallar shunday asarlar jumlasiga kiradi.

“Iblisi lain (shayton), deydi bir qush Hudhudga yuzlanib, - makr-hiyla bilan meni yaramas ishlar sari undaydi, ko’nglimga har xil vasvasalar soladi. Undan qutulishga kuchim ham aqlim ham yetmaydi.” Hudhud unga javoban aytadiki, insonning to’g’ri yo’ldan ozishiga shayton emas, nafs sababchidir. Chunki nafs shunday baloki, uning oldida hatto yuzta shayton ham ip esha olmaydi:

Nafsing oncha ko’rguzur talbisni,

Kim qilur sharmanda yuz iblisni.

Senki yor o’ldung bu yanglig’ nafs ila,

Ne uchun shaytondin etkaysen gila?

Yana bir savol mol-dunyo, simu zarga hirs qo’ymoqlik haqida:

Dedi bir soyilki: - “Ey farrux jamol,

Ko’ngluma behad muhabbat soldi mol.

Bir nafas gar bo’lmasa ilkimda siym,

Hajridin jonimga bor o’lmakka biym.

Hudhud o’z javobida uni bu illati uchun qattiq qoralaydi va mol-dunyoni butga qiyoslab, unga butparast bo’lmoqlik nodonlik va johillikdan o’zga narsa emas, deb baholaydi. Muallifning Hudhud tilidan mol-mulkka hirs qo’yishni keskin qoralashi bejiz emas. Shoirning kichik zamondoshi bo’lgan Zayniddin Vosifiy Shayboniylar tomonidan Hirot bosqinga uchraganida bir amirning xazinasida saqlangan oltin-kumushlar, zebu javohirlarni yashirinch boshqa joyga ko’chirish uchun uch kun kerak bo’lganligini yozgan. Shundan xulosa chiqarilsa, Navoiy o’z davridagi molparastlik, dunyoga hirs qo’yishni bejiz qoramaganligini payqash mumkin.

Yana bir savol himmat haqida. Bu haqda savol bergan qush o'zining zaifligi, ammo himmati balandligini bildirib, "so'z bu ma'nida ne aytur ma'naviy?" deydi. Hudhud tilidan himmat shunday ta'riflanadi:

***Gavhar o'ldi himmatu odam sadaf,
Bu sadafqa ul guhardindur sharaf...***

***Podshahkim bo'lsa himmat ichra past,
Keldi himmatlig' gadodin zeri dast.***

Navoiyning himmat haqidagi qarashlari uning "Hayrat-ul abror", "Saddi Iskandariy", "Mahbub-ul qulub" va boshqa asarlarida ham atroflicha badiiy ifodasini topgan. Shoir insonni oliy himmat sohibi bo'lishga chorlar ekan, hatto himmati baland gado himmatsiz shohdan ustun turadi, degan xulosaga keladi. Demak, insonning jamiyatdagi o'rni uning mavqei yoki boyligiga qarab emas, insoniy fazilatlari bilan belgilanadi, degan nuqtai nazar bu yerda ham o'zining yorqin ifodasini topgan.

Navbatdagi savol-javob insof haqida. Bu masalaga Hudhud tilidan quyidagicha munosabat bildirilgan:

***Odamiyg'a yaxshi ko'p afsof erur,
Lek alarning ashrafi insof erur.***

***Kingakim insof yo'q – inson emas,
Munsiz atvorida juz nuqson emas.***

Muallifning bu pozitsiyasi barcha davrlar uchun ham muhim ahamiyatga molikdir. U shoirning o'z zamonida mavjud odob-axloq tarzidagi kamchiliklardan noroziligining ifodasi bo'libgina qolmay, mohiyat e'tibori bilan umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ular kelguvsi avlodlar uchun ham o'ziga xos xitobdek yangraydi.

Dostondagi yetti vodiy tavsifi munozara va savol-javob lavhalarining mantiqiy davomi bo'lib, asar kompozitsiyasida muhim o'rin tutadi. Chunki Navoiy

oliy darajadagi mantiqiy poklikka erishish uchun insonning faqat axloqi-ma'naviy illat va qusurlardan qutulishi yetarli emas deb hisoblaydi. Uning fikricha, yana bir qator noqisliklar borki, ular jamiyatning ijtimoiy muammolari bilan uzviy bog'liqdir. Bu illatlar, ayniqsa, shoir yashagan davr uchun chuqur ijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, ular ancha chuqur ildiz otgan edi. Bunday illatlar sifatida Navoiy kishilarning o'z ehtiyojlaridan ortiqcha narsalarga haddan ziyod berilishlari, turli din va e'tiqodga oid kishilar o'rtasidagi munosabatlar, toifalarga bo'linish, haq-huquqlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni qayd etadi. Inson jamiyatdagi ana shunday nomutanosiblik, tabaqalashuv, ijtimoiy tengsizlik singari illatlardan yuqori ko'tarila olsa, u ma'naviy kamolot sari yuz tutadi. Garchi vodiylar ta'rif-tavsifida ilohiy-tasavvufiy talqinlar va g'oyaviy maqsadlar ustun tursa-da, shoir ilg'or fikrli kishi sifatida shaxs va jamiyat muammolarini ham mohirlik bilan asar mag'ziga singdirib boradi.

Shu jihatdan **Talab** vodiysi vasfida keltirilgan quyidagi satrlar muhim ahamiyatga molikdir:

***Molu mulku har nedur solikka band,
To'rt takbiri fano urmoq baland.***

***Har nekim g'ayri talabdur – tashlamoq,
O'zni maqsad manziliga boshlamoq.***

***Qolmasa olam mato'idin jihat,
O'zga nav' o'lg'ay sanga ul dam sifat...***

Talab vodiysida keltirilgan bu fikrlar keyingi vodiylar vasfida har tomonlama asoslangan. Mazkur vodiylar tavsifi Navoiyning insonparvarlik g'oyalarini tasavvuf nuqtai nazari bilan uyg'unlik va mushtaraklikda izohlashga xizmat qilgan. Bu hol **Ishq**, **Istig'no**, xususan, **Ma'rifat** hamda **Tavhid** vodiylari bayonida bo'rtib ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, shoirning Ma'rifat vodiysi tavsifida ilgari surgan fikrlari diqqatga sazovordir. Navoiy avval bu bosqichning muxtalif (ziddiyatli) xarakterga ega ekanligini qayd qilgach, shunday yozadi:

***Munda solikka tafovut bo'ldi fosh,
Anga mehrobu munga but bo'ldi fosh...***

***Har kishi o'z tavrda istab kamol,
Qildi vodiy tay qilurg'a ishtig'ol.***

Ammo, deb izohlaydi muallif, bu yo'lda barchaning maqsadi bitta, kishilar xoh mehrobga bosh qo'ysin, xoh butga sajda qilsin, ularning e'tiqodi bitta narsaga yo'naltirilgan bo'ladi, - ular turli yo'l va usullar bilan o'zlarining tangriga bo'lgan muhabbatini izhor qiladilar.

Vodiy tavsifidan keyin keltirilgan **ko'rlar va fil** haqidagi hikoyatda shoirning g'oyaviy maqsadi obrazli ifodalanadi. Hindistonga sayohat qilgan to'rt nafar ko'zi ojiz kishilar qaytib kelganlarida odamlar ulardan fil haqida so'raydilar. Ko'zi ojiz kimsalarning har biri filning muayyan a'zosini paypaslab ko'rgan ekanlar. Ular filni ana shu a'zo sifatida ta'riflaydilar. Kishilar orasida Hindistonni yaxshi biladigan, bir vaqtlar filbonlik qilgan bir donishmand ham bor ekan. U ko'rlarning fil haqidagi ma'lumotlarini donishmandona tasdiqlaydi:

***CHun hakimi komili hindu najod,
Pilbonlig' shevasida ustod.***

***Bo'ldi ul taqrirlarg'a mustame'
Naql qilg'onlarg'a bo'lmay mumtane'.***

***Dedi har bir ulcha voqif erdilar,
Pil holidin nishone berdilar.***

Shunday qilib, Navoiy o'z davridan ancha olg'a ketib, hurfikrlilik pozitsiyasida turadi. Turli din va e'tiqodlarni kamsitmasdan, ularning barchasi asosiy maqsad yo'lidagi vositalar deb qaraydi. Bu fikrlar Tavhid va Faqr fano vodiylari tavsifida yanada rivojlantiriladi. Chunonchi, Tavhid vodiysida shoir

olamdagi barcha narsa-hodisalar, jumladan, inson ham yaratguvchi bilan bir butunlikda mavjud ekanligini ta'kidlaydi:

***Birda birdin hosil bo'ldi bir adad,
Yo'q xiradqa munda dam urmoqqa had.***

***Chun sening olingg'a tushti bo'yla pech,
Bilki ermish birdin o'zga barcha hech.***

***Bir bo'lu, bir ko'ru, bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila...***

Faqr u vodiysi tavsifida Navoiy borliqdagi hamma narsa-hodisalar Undan ekanligi va barcha jarayonlar foniy – o'tkinchi ekanligini ta'kidlaydi. Xoliq tomonidan yaratilgan barcha narsalar ichida eng mukammali Inson ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi:

***To'rt unsur, yetti ko'k, olti jihat –
Nodiru oliy asosi koinot.***

***Barchadin ashrafki ul inson erur,
Kim kamolida xirad hayron erur.***

Sharif zot – insonga ana shunday baho bergan Navoiy fikrida davom etib, inson, kim bo'lmasin, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, mohiyat e'tibori bilan tengdir degan xulosaga keladi:

***Barchasin Haq zoti mavji bahri bil,
Ham vujudin mavj yanglig' onglag'il.***

Alisher Navoiy insonni ana shu tariqa har taraflama badiiy-falsafiy tadqiq va tahlil etgandan so'ng hikmatga aylangan mashhur hukmini chiqaradi:

***O'z vujudingg'a tafakkur aylagil,
Har ne istarsen o'zungdin istag'il.***

Ma'lum bo'ladiki, Alisher Navoiy salaflar tomonidan qalamga olingan mavzu va syujetga o'zi yashagan davr talablari nuqtai nazaridan yondashib, uni o'z dunyoqarashiga moslashtirgan holda badiiy talqin etgan. An'anaviy syujetning mohiyat va mazmunini sezilarli o'zgartirgan. Ruhoniy-ilohiy ideallari qatorida dunyoviy g'oyalarni ham uyg'unlikda tarannum etgan. Daho so'z san'atkoriga xos insonparvarlik g'oyalari, komillikka yetaklovchi o'gitlari ham asar mag'ziga singdirib yuborilgan. Dostonni murakkab syujetgagina emas, balki juda chuqur mazmun-mohiyatga ega ekanligini, uni anglash va to'g'ri sharhlash uchun muayyan tayyorgarlik lozimligini muallifning o'zi ham yaxshi anglagan:

Qush tili bilgan so'zum fahm aylagay,

Fahm etardin ham base vahm aylagay.

Barcha so'zlar mushkilidur bu hadis,

Bezabonlarning tilidur bu hadis.

Shart bukim, onglag'on sharh etmagay,

To tilidin boshqa ofat yetmagay.

Ko'rinadiki, "Lison-ut tayr" dostonining muallifi mazkur asarda olg'a surilgan g'oyaviy-falsafiy masalalarni to'g'ri anglash va idrok etish uchun muayyan tayyorgarlik zarurligini ta'kidlamoqda. Bu asar mazmun-mohiyatini nafaqat tushunib yetish, balki uni boshqalarga sharhlashda ham ehtiyot zarurligini uqtiradi. Demak, mazkur asar mohiyatini idrok etish uchun diniy-dunyoviy bilimlar biln birga tasavvuf ta'limotining asosiy yo'nalishlarini chuqur bilish talab etiladi. Dostonning yetakchi qahramonlari bo'lgan qushlarning majoziy obrazlar ekanligini ham nazarda tutsak, muallifning ushbu asar tarkibidagi hikoyatlar zimmasiga badiiy –estetik funksiyadan tashqari katta axloqiy-ma'rifiy vazifalar ham yuklaganidan dalolat beradi.

2-fasl. **Komillikning badiiy-estetik talqinlari**

Vahdat-ul vujud ta'limotida **ishq** muhim o'rin tutadi. SHuning uchun ham ishq mavzusi tasavvuf namoyandalari va so'z san'atkorlari tomonidan ko'p asrlardan buyon har tomonlama tarannum etiladi. Ishq dunyoviy jihatdan odamni odam va olamga bog'lasa, tasavvufiy jihatdan Oллоhga bog'laydi. Bog'lanishning har ikki ko'rinishida ham birlashish va yagonalik o'z ifodasini topadi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida ishq, oshiq va ma'shuq obrazlari mushtaraklik va uyg'unlikda qalamga olinishining boisi ham shunda.

Alisher Navoiy talqiniga ko'ra ishq mazmun-mohiyati bilan ikki toifaga: majoziy ishq va haqiqiy ishqqa ajraladi. Haqiqiy mahbub – Alloh vaslidan umidvor oshiq ishqning har ikki bosqichini bosib o'tadi. Ammo Navoiyning fikricha, ishq odamning o'ziga bog'liq hodisa emas. Ishq ko'ngillarni o'ziga jalb etadi. Farhod ham, Majnun ham avvalo majoziy-dunyoviy ishqqa giriftor bo'lib, so'ngra haqiqiy ishq sari yo'l topganlari bunga misol bo'la oladi.

Navoiy haqiqiy mahbubga quyidagicha ta'rif beradi: "... ma'shuq husndin iborattur". "Nasoyim-ul muhabbat" asarida muallif shayx Ro'zbehon haqida hikoya qilar ekan, quyidagi voqeaga diqqatni qaratadi. Shayx Ro'zbehon yo'lda ketayotib, bir kampirning qiziga dashnom berayotganini eshitib qoladi. "Husningni hammaga namoyon qilaverma, - deydi kampir. – Aks holda go'zalligingning qadri qolmaydi". SHunda shayx aytadiki, "Ey ojiza, bu tanbehing noo'rindir. Chunki husn bor joyda ishq bor. Ikkisi azaldan ahd bog'lagan".

Hamma mavjudotda muayyan go'zallik bor. Biroq husni haqiqiy – zavol topmas go'zallik Oллоhgagina xosdir. Bu go'zallik insonda, uning ma'naviy-botiniy hamda zohiriy ko'rinishida aks etadi. Inson qalbi Oллоh jamoli jilvalanuvchi oynadir. Alisher Navoiy mazkur dostonning Hudhud qushlarning Simurg' haqidagi savollariga bergan javobi faslida bu ma'noni g'oyat mahorat bilan tasvirlagan:

Ganj erdi, lek maxfiy zot anga,

Yoshurun husn erdi, kun mir'otanga.

*O'z zuhurin chun tamanno ayladi,
Chiqti-yu avval tajallo ayladi...*

*...Istadi husnig'a oshiqlik'ni fosh,
Ko'zgu paydo qildi andoqkim quyosh.*

*...Bo'ldi ul ko'zgu ko'ngul, ey ahli dil,
Kim haq anda jilva aylar muttasil.*

*Ul qilibon jilvai husn oshkor,
Sen ko'ngul birla anga oinador.*

Shuning uchun ham inson barcha mavjudotlar ichida mukammalidir. Shu bois majoziy ishq ham, haqiqiy ishq ham insonlar orasida voqe bo'ladi. Husn haqiqiy ishqqa poklik bag'ishlaydi. Natijada u "o'zi poku, yuzi poku, so'zi pok" zotlarni maydonga chiqaradi. Ishq pok bo'lgach, ruhiy zavq-shavq ustunlik qiladi. Natijada Ollohga oshiq bo'lgan solik go'zal chehra vositasida haqiqiy mahbub jamolidan ham bahra oladi.

*Ishq keldi mash'ali gitifuro'z,
Dema mash'al, shu'lai ofoqso'z.*

*Ishq aro har kimsa darxur bo'lmag'ay,
O'tqa loyiq juz samandar bo'lmag'ay.*

*Ishq aro poku qalandarlik kerak,
Shu'la bahrida samandarlik kerak...¹²*

¹² Alisher Navoiy. Lison-ut tayr. MAT. 20 jildlik. 12-jild. Toshkent."Fan". 1996. 219-bet. Keyingi iqtiboslar shu manbadan olinadi.

Navoiy nuqtai nazariga ko'ra, pok ishq mutlaq haqiqatdir. Zero u tufayligina oshiq va ma'shuq mavjudgina bo'lmay, ruhan birlashadilar. Bunda oshiq mumkin-ul vujud, ma'shuq esa vojib-ul vujud sifatida namoyon bo'ladi. Natijada:

*Bir dona edi vale ikki juzv,
Bir-biriga uyla muttasil uzv.*

*Kim shiddati vahdati visoli,
Bermay anga ikkilik majoli.*

*Donadek o'lub ikki badan bir,
Dona qobg'i kibi kafan bir.*

Alisher Navoiy ijodida, xususan, "Lison-ut tayr" dostonida komillikning yana bir pog'onasi - **faqr** mavzusi ham atroflicha ishlangan hamda badiiy talqin etilgan. Bu mavzu shoir ijodiga chuqur xalqchilik bag'ishlash bilan birga, uning naqshbandiylik silsilasi bilan ham uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Chunki faqr naqshbandiylikning asosiy yo'llaridan biri sanaladi.

Insonning maxluq belgilaridan xalos bo'lib, Haq sifatlarini egallashi faqr deyiladi. Faqrga erishmoq uchun quyidagi manzillarni bosib o'tish darkor:

1.Qanoat manzili. 2. Poklanish manzili. 3. Bog'lanish manzili.

Qanoat manzili faqrning eng muhim manzili hisoblanadi. Shuning uchun ham Navoiy qanoatga alohida e'tibor beradi. Ulug' shoirning fikricha, qanoatsiz faqrni, faqrsiz qanoatni tasavvur qilib bo'lmaydi.

"Lison-ut tayr" da qanoat bilan bog'liq Hudhud hamda Burgut muloqoti berilgan. Burgut o'z qudrati bilan g'ururlanib, Simurg' safaridan ma'no yo'qligini izhor aylaganda Hudhudning keskin tanqidiga uchraydi:

*Senki maqsud istoy, ey badnafsi dun,
Azm etordin bo'yla bo'lg'aysen zabun.*

*Ozim o'lmay yo'lg'a solg'aysen qanot,
Changu minqoru qnotingdin uyot.*

***Muncha birla o'zni tavsif etkasen,
Zo'ru shavkat birla ta'rif etkasen.***

***Pahlavonu qahramon ul bo'ldi, ul –
Kim kechib jonidin etkoy azmi yo'l...***

Shundan so'ng Hudhud tilidan qanoatsiz pahlavon haqidagi hikoyat keltiriladi. Unda aytilishicha, kuch-qudratda tengsiz pahlavonlardan biri xaloyiq bilan vaziyat taqozosiga ko'ra olis safarga chiqar ekan, yo'lda ochlikka qanoat qilolmay, halok bo'ladi. Yosh bolalar, hatto munkillagan qariyalar ham qanoat bilan yetib borgan manzilga u yeta olmaydi. (Biz bu hikoyatni yuqoridagi faslda tahlil qilib o'tdik).

Faqrning ikkinchi manzili bo'lgan poklanish ko'ngilga aloqadordir. Chunki poklangan qalb ta'ma va xudbinlikdan xalos bo'ladi. "Azza man qana', zalla man tama'" ya'ni qanoat qilgan aziz, ta'ma bilan yashagan xordir mazmunidagi ushbu hadisni Navoiy quyidagicha ifodalagan: "Ta'ma mazallatqa dalil va g'aniyi tome' xoru zalil". (Ta'ma tubanlikdan dalolatdir, ta'magir odam boy-badavlat bo'lsa ham xor va tubandir). Shuning uchun ham vahdat orzusidagi oshiq dunyo molidan butunlay voz kechmog'i darkor. "Lison-ut tayr" dagi Hudhud va Humoy orasidagi savol-javob va unga ilova qilingan hikoyatda dunyo molining o'tkinchili va bevafoligi haqida hikmatli o'gitlar beriladi.

Bog'lanish manzilida solik faqr ma'rifatini egallaydi. So'fiy ana shu pog'onaga ko'tarilsa, u to'laligicha Ollohga bog'langan, faqrda kamolotga yetgan hisoblanadi. Faqr zohiran axloq-odobni anglatsa-da, botinan Ollohga intilishni, uni bir nafas ham xayoldan faromush qilmaslikni bildiradi.

Shunday qilib, faqr – qanoatda shohlik va Haqqa yetish yo'li. Shu sababli u xoksorlik, oddiylik, odoblilik, sadoqat, sabr, shukr singari muhim fazilatlarni qamrab oladi. Ulardan ikkitasi g'oyatda muhim sanaladi: vafo va sadoqat. Shuning uchun ham bu ikki xislat Alisher Navoiyning nafaqat "Lison-ut tayr" dostonida, balki boshqa barcha asarlarida ham ulug'lanadi, insoniylikning bosh omillaridan

biri sifatida tarannum etiladi. Ikkinchisi esa tavozu va kamtarlikdir. Chin hoqonining farzandi bo'lgan Farhodning kamtarligi, oddiy odamlar bilan ariq va hovuz qazishda ishtirok etishi ana shu yuksak fazilat – kamtarlikning yorqin badiiy ifodasidir.

Demak, ishq odamni faqr yo'liga boshlaydi. Faqr esa insonning o'zligini yo'q qilib, uni xoksorlikda kamolga yetkazadi. Majnun ham faqr xoksorligida shu qadar yuksaladiki, unda insoniy vahshatdan asar ham qolmaydi. Shu sababli hatto hayvonlar ham u bilan do'stlashadilar. Farididdin Attorning "Tazkirat-ul avliyo" asarida shu ma'nodagi qiziqarli hikoya keltirilgan. Unda aytilishicha, hukmdorlardan biri ov qilib yurib, birinchi so'fiy ayol – Robia Adaviyaga duch keladi. Qarasa, u ovlamoqchi bo'lgan ohular ayol atrofiga to'planib, undan panoh istab turgan emish. Shunda hukmdor-sayyod nega hayvonlar undan qochib, Robianing oldiga kelganini so'raydi. Shunda Robia: "Sening nafsing uchun ular go'sht va yog'dan iboratdir. Shuning uchun ular sendan qochadilar", deya javob beradi.

Darhaqiqat insonda nafs bor ekan, u kamolot kasb eta olmaydi. Nafs insonni hamisha razillikka, hayvoniy tubanlikka yetaklaydi. Kamolot yo'lida g'ov bo'luvchi bu qusurga qarshi kurashish vahdatga intilishning yetakchi g'oya va asosiy maqsadlaridan biri bo'lmog'i lozim. Zero "Lison-ut tayr" dostonida muallif nafs masalasiga bir necha o'rinlarda urg'u beradi, uning ulug' maqsadlar yo'lida g'ov bo'lishi, insonni tubanlik va razolatga boshlashi haqida qayta-qayta uqtiradi. Xususan, Qarchig'ay bilan bo'lgan muloqot chog'ida Hudhud "SHah qo'li taxtimduru boshimda toj, Yo'q manga Simurg' sori ehtiyoj" deya g'ururlangan qarchig'ayni mulzam qiladi:

***Dedi Hudhud: - K-ey g'urur ilkida past,
Jahl ila g'aflatqa bo'lg'on zeri dast...***

***Gar hamiyat bo'lsa erdi yo uyot,
Bo'lmag'ay erdi uyotingdin hayot.***

Lek chun nodonlig'ing g'olibdurur,

Nafs mundoq yovag'a rog'ibdurur.

Navoiy fikricha, haqiqiy kamolot namunasi Oллоhning o'zidir. Shuning uchun ham inson unga intiladi. Inson haqqa intilgani sari kamolot kasb etib boradi.

Eng muhimi, bu kamolotda vahdat-ul vujud aks etadi. Chunki komil inson martabasi qismning butunga aylanishidir. Butun Oллоhdir. Qism esa uning tajalliyoti bo'lib, inson shu namoyonlik orasida mukammali hisoblanadi. Biroq u ham butunga nisbatan noqisdir. Riyozat esa unga komillik bag'ishlaydi. Demak, qism butunga intilgani sari mukammalik kasb etib boradi. Komil inson poyasiga yetgach, unda ilohiy sifatlar jilvalanadi. Unda senlik va menlik barham topib, faqat ilohiy ruh qoladi. Bu ilohiy tavhid (vahdat) Oллоh va olmning birligini ko'rsatadi. Zero, butundan vujudga kelgan qismning yana unga qaytishida ham kamolot, vahdoniyat aks etadi. Shunday qilib, komil insonda hamma narsaning umumlashishi bilan Oллоh va olamning yaxlitligi ham o'z tasdig'ini topadi. Buning yuksak badiiy ifodasini "Lison-ut tayr"ning "Tavhid tariqi adosida munojot" deb nomlanuvchi qismida yaqqol ko'ramiz. Doston muallifi Oллоhga munojot qilar ekan, shunday deydi:

Ey musallam zotinga tavhidi pok,

Ahli vahdat oytib oni zavqnok.

Har kishikim qismi tavhid aylading,

Boisi tajridu tafrid aylading.

Kimki o'zlukdin chiqording oni chust,

Aylading ollingda tavhiddin durust.

Kimgakim tavhiddin berding kushod,

Midhatida kufr qilding ittihad.

Ongakim vahdat sori yo'l aylading,

Sen qolib nafyi buyu ul aylading.

***Menu o'zluk shirkatin mendin itur,
Mahz tavhiding sari, yo rab, yetur.***

***Menda yo rab, qo'yma menlikdin nishon,
O'zlugungda mahv qil domonkashon.***

Shu tariqa buyuk mutafakkir va shoir vahdatning dasturiy tavsifini bayon etadi. “Lison-ut tayr” dostonida olg’a surilgan g’oyaviy-falsafiy fikrlarini umumlashtiradi. Hayotiy kuzatishlari, umr tajribalari hamda yakuniy xulosalarini badiiy ifodalaydi. Shuning uchun ham mazkur badiiy asar nafaqat tasavvuf tarixida, balki mumtoz adabiyotimiz ravnaqida, xalqimizning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan.

X U L O S A

Alisher Navoiy jahon adabiyoti tarixida asarlari chuqur donishmandlik va ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan sug'orilgan buyuk so'z san'atkorlaridan biri sanaladi. Mutafakkir shoirning hayot va inson, tabiat va jamiyat, din va tasavvuf haqidagi qarashlari asosan badiiy ijodiyatida murakkab allegoriyalar, majozlar, ramzlar, muayyan nazariy tushunchalarni ifodalovchi obraz-istilohlar vositasida yuksak darajadagi badiiy til va uslub bilan ifoda etilgan. Bu borada ayniqsa uning "Lison-ut tayr" dostoni o'ziga xos alohida o'rin egallaydi. Navoiy bu dostonni yozishda Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyoti tarixida keng qo'llanib kelingan qush tili bilan asar yozish an'anasiga murojaat qiladi va bu borada katta mahorat ko'rsatib, shu tipdagi asarlarning g'oyaviy-badiiy yuksak namunalaridan birini yaratdi.

"Lison-ut tayr" dostoni ulug' shoir va mutafakkirning umr bo'yi to'plagan hayotiy tajribalari, falsafiy umumlashmalarining badiiy ifodasi, epik bayonidir. Zero shoir ushbu dostonni yaratishga umri nihoyasida kirishganligining ham muayyan sabablari bor. Ushbu nodir asar yuzaga kelgunga qadar ham Alisher Navoiy turli janrlardagi asarlarida vahdat hamda komillik masalalariga ko'p marta murojaat qilgan.

Shoir mashhur qit'alaridan birida aytadi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih

Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Bobokalonimiz shu to'rt satri bilan olam-olam ma'nolarni ifodalab, eng sharif mavjudot – Insonni kamolotga erishishga da'vat etgan. Darhaqiqat, qisqa umr davomida kamolotga intilgan, vaqtini zoe ketkazmagan odam bu dunyoga kelganidan pushaymon bo'lmaydi. U o'zining ichki imkoniyatlari, ma'naviy olami qirralarini namoyon etib, barkamollik sari yuz tutadi.

Komil inson, shu tariqa, ulug' shoir adabiy merosining yetakchi obraziga, asosiy qahramoniga aylanadi. Uning orzu-armonlari, intilishlari, kurashlari, dardi, tashvishi, mavjud olam haqidagi tasavvurlari Alisher Navoiy ijodida badiiy tadqiq ob'ektiga asos bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy o'z davri qarashlari va tushunchalari asosida Insonni ulug'lar ekan, tasavvuf tariqati bu borada unga eng qulay vosita bo'ldi. Chunki tasavvuf, uning ilohiy va dunyoviy g'oyalari nafaqat Alisher Navoiyning, balki uning zamondoshlari bo'lgan ijodkorlarning ham ilhom manbai, o'zining hur fikrlarini ifodalash vositasi bo'lganligi shubhasiz. Shu sababli ham Alisher Navoiy ijodidagi insonning ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan barkamolligi shoir lirikasining ham, epik asarlarining ham yetakchi g'oyalaridan biridir.

Modomiki, Inson Haq sirlarining mumtozi ekan, u turli illat va nuqsonlardan xoli bo'lmog'i lozim. Insonni insoniylikdan chiqaradigan, uni to'g'ri yo'ldan ozdirib, beburd qiladigan xususiyat – bu kibr va manmanlik, nafs hamda xudbinlikdir. Insonning o'zligini anglashi, ma'naviy barkamollik sari intilishi lozimligi shoirning “Xamsa” asarida, biz so'z yuritgan “Lison-ut tayr” nomli falsafiy didaktik dostonida, “Mahbub-ul qulub” kitobida batafsil yoritilgan. Uning lirik asarlarida esa Inson kamoloti g'oyasi tasavvuf tariqatida belgilangan so'nggi bosqich – Haq vasli bilan bog'lanadi. Lirik qahramon ma'lum doiradagi diniy e'tiqod bilangina cheklanib qolmaganligi uchun uning kechinmalari, tasavvur va tushunchalarini keng va atroflicha bayon etishga imkon tug'iladi. Chunki bosh maqsad Haqqa erishmoq ekan, komil inson bunga turli yo'llar orqali erishmog'i mumkin. Buni shoir g'azallaridan birida shunday bayon etgan:

Senga tolib kimki azmi Ka'ba aylar yo'qsa dayr,

Sen murodi kimki dayr ichra sanam der yo samad...

Ya'ni, muqaddas Ka'baga yuzlanganlar ham, but va sanamlarga topinuvchilar ham seni bosh maqsad deb biladi, deydi shoir.

Demak, Inson qaysi din va mazhabda bo'lishidan qat'iy nazar Haq yo'lida komil bo'lishga intilsa, u haqiqiy insondir. Shoir ko'ngilda ta'ma bilan, ya'ni

do'zax azobidan qutulish ilinjida yoki jannatga tushish orzusida Yaratganga ibodat qilishni yoqlamaydi.

Komillikka da'vogar inson kibru havodan, minnatdan, riyodan xoli bo'lmog'i lozim. Shundagina insonning ruhiy dunyosi poklanadi, haqiqiy ulug'vorlik kasb etadi. Aks holda:

***Qo'yg'il o'zlikni gar odam ersang, oning Shayton
Kibr ila ayladi ko'r, oncha ibodat aylab...
("Navodir-ush shabob" devonidan)***

Ushbu bayt zamiriga ulkan ma'no yashiringan. Yuqoridagi fasllarda ham tahlil qilganimizdek,, Shayton aslida Haq dargohida muhtaram zot hisoblangan. Ollohga yetmish ming yil ibodat aylab, farishtalar sarvariga aylangan. Ammo birgina manmanligi, kibru havosi bilan, ya'ni tuproqdan yaralgan Odamga past nazar bilan qaraganligi uchun abad-ul abad tavqi la'natga duchor bo'lgan. Ana shu mazmun "Lison-ut tayr"da ham epik ko'lamda keng qamrovli badiiy sharhini topgan.

Olloh Odam alayhissalomni tuproqdan vujudga keltirgach:

***Chun malak xaylig'a ul masjid o'lub,
Kimki sarkashlik qilib mardud o'lub...***

***Bu ajab mazharni ko'zga ilmag'on,
Sajdasin xayli malakdek qilmag'on.***

***Bo'ynini sunmay ayon etkanda ta'n,
Solibon bo'ynig'a oning tavqi la'n...***

***To qiyomat bu shaqovatqa qolib,
Do'zaxi makru adovatqa qolib...***

Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: nisbatan qisqa umr ko'radigan Insonga o'tkinchi dunyoda kibrlanishni, manmanlikni kim qo'yibdi?!

Xudbinlikni qoralash, samimiylik va o'zgalarga hurmat bilan qarashni yoqlash, kamtarinlikka undash orqali ham Alisher Navoiy odamlarni barkamollik kasb etishga da'vat etadi. Hatto Islomda botil hisoblanib, qoralanuvchi butparastlik ham xudparastlik (egoizm) va manmanlik oldida gunoh sanalmay qoladi:

Ul sanamg'a sajda qilsam, zohidi xudbin, ne ayb,

Butparast o'lmoq ko'p ortug'roqki bo'lmoq xudparast.

(“Navodir-ush shabob”, 77-g'azal).

Navoiy nazarida komillikning yana bir belgisi qanoatli bo'lmoqdir. Chunki qanoatli kishi yuqorida aytilgan kamchilik va qusurlardan osonroq qutuladi. Negaki, u boru yo'qqa sabr etadi, o'zining to'kis yashashi uchun boshqalarni zor qaqshatmaydi. Bechorahol yashasa-da, o'ziga to'qlarga hasad qilmaydi:

Boru yo'q mehnatin chekmas, bu davlat basdurur –

Har kishi olamda qone' bo'lsa yo'qu bor ila.

(“Navodir-ush shabob”, 522-g'azal)

Shoirning lirik she'rlarida komillikka da'vat etuvchi ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan namunalar ko'plab topiladi. Ularni mutolaa etar ekanmiz, insonparvarlik shoirning bosh maqsadiga, Inson yetakchi obrazga, uning barkamolligi esa asosiy g'oyaga aylanganini kuzatishimiz mumkin.

Komillikka da'vat, barkamol inson muammosi Alisher Navoiyning epik asari “Xamsa”da, “Lison-ut tayr” dostonida, nasriy asarlarida yanada kengroq va mukammalroq yoritilganki, biz buni ushbu kichik tadqiqotimiz fasllarida baholiqudrat ko'rib chiqdik. Epik asarlarning imkoniyat darajasi, o'quvchilar doirasining kengligi, turli yoshdagi kitobxonlar ommasi uchun tushunarli bo'lganligi sababli ulug' shoir va mutafakkir barkamollik mavzusi, komillik muammolarini ana shunday asarlarida batafsilroq yoritgan.

Xulosa qilib aytganda, “Lison-ut tayr” dostoni mumtoz adabiyotimiz tarixida, xalqimizning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri rivojida, qolaversa, shoirning adabiy merosida alohida o’rin tutadi. Chunki Alisher Navoiyning epik poeziyadagi so’ngi yirik asari hisoblangan “Lison-ut tayr” dostoni o’zining ilg’or g’oyaviy mazmuni, janr xususiyatlari, obrazlar tizimi, badiiy yetukligi va boshqa jihatlari bilan faqat ulug’ shoir va mutafakkir ijodida emas, balki o’zbek mumtoz adabiyoti tarixida ham juda katta voqea bo’ldi. U jahon adabiyotida majoziy-allegorik falsafa janrida yozilgan o’lmas asarlar qatorida badiiy kashfiyotning nodir namunalaridan biri bo’lib qoldi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2007.
2. Alisher Navoiy. Lison-ut tayr. Mukammal asarlar to'plami. 11-jild.
3. Boltaboev H. Mumtoz so'z qadri. T.: Adolat. 2006.
4. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: "O'zbekiston. 1993
5. Jaloliddin Rumiy. Hikmatlar. T.: "Fan". 2007
6. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. T.: "Fan" 1993.
7. Karimova F. O'zbek adabiyotida debocha. T.: "Mumtoz so'z". 2008.
8. Komilov N. Tasavvuf. (1-kitob). T.: 1996.
9. Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. T.:
"Movarounnahr". 1999.
10. Nosirov O. Va boshqalar. O'zbek klassik she'riyati janrlari. T.:
"O'qituvchi". 1979.
11. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T.: "O'qituvchi". 1980.
12. Sharipov Sh. Alisher Navoiy "Lison-ut tayr" dostonining genezisi va
g'oyaviy badiiy xususiyatlari. Toshkent. "Fan". 1982.
13. Sharq mumtoz poetikasi. (H. Boltaboev talqinida). T.: 2008.
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. T.:
"Movarounnahr" 2004.
15. Farididdin Attor. Tazkirat-ul avliyo. T.: 1997.
16. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. T.: 2009
17. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. T.: 1990.
18. Haqqul I. Abadiyat farzandlari. T.: 1990.
19. Haqqul I. Irfon va idrok. T.: 1998.
20. Homidiy H. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. T.: 1970.

M U N D A R I J A

K i r i sh	3
1 BOB. “Lisout tayr” dostonining yaratilish tarixi.	
1-fasl. Sharq adabiyotida “Lison-ut tayr” tipidagi dostonlar.....	7
2-fasl. Asarning kompozitsion xususiyatlari.....	14
II BOB. Doston hikoyatlarining g’oyaviy-estetik tasnifi	
1-fasl. Dostonning g’oyaviy-falsafiy jihatlar.....	22
2-fasl. Komillikning badiiy-estetik talqinlari.....	32
X u l o s a	40
Foydalanilgan adabiyotlar	45
Ilovalar	48

1-ilova. “Lison-ut tayr” dostonidagi hikoyatlarning shartli tasnifi



2-ilova. “Lison-ut tayr” dostonini yaratishda Navoiy ta’sirlangan ijodkorlar

